

ISSN 2010-720X

ILIM HÁM JÁMIYET



FAN VA JAMIYAT

2024 (№6/2)

статья также рассматривает особенности рекламного слогана. На примерах сделана попытка дать общую характеристику рекламному слогану и выделить его особенности. Слоган, как и все другие детали рекламы,

играет колоссальную роль в эффективности рекламы. Очень важно воздействие рекламы на внимание покупателей и потребителей.

Литература

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М.: «Наука», 1966. –С. 378.
2. Котлер Ф. Маркетинг менеджмент: Пер. с англ. – СПб.: -Питер: 2000. –С. 896.
3. Льюис Д. Нейромаркетинг в действии. Как проникнуть в мозг покупателя. –М.: Манн, Иванов и Фербер, 2015. –С. 274.
4. Морозова И. Слогая слоганы. –М.: 1998. –С. 148.
5. Уэллс У. Реклама: принципы и практика: Пер. с англ. / У. Уэллс, Дж. Бернет, С. Мориарти. – СПб.: -Питер: 2001. –С. 736.

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақолада реклама, реклама шиори ва уларнинг хусусиятларини таъкидлаш масаласини кўриб чиқишга бағишланган. Рекламага кенг таъриф берилган. Мақолада рекламанинг ўзига хос хусусиятларини, реклама матнининг ижодий жиҳатини ўйғунлаштиришга ҳаракат қилинади, реклама шиорининг тили ва таркибий қисмларига, эътибор берилди, бу рекламанинг ифодалигини ва ўзига хослигига сезаларли таъсир қилади. Ҳар хил реклама турлари ва уларнинг хусусиятлари қисқача умумлаштирилади. Рекламани лойihalаш ва яратиш асослари унинг самарадорлигини назарда тутди ва ушбу мақолада реклама бизнесининг самарадорлигини ошириш омиллари ҳақида сўз боради.

РЕЗЮМЕ. Данная статья посвящается рассмотрению вопроса рекламы, рекламного слогана и выделению их особенностей. Приводится широкое определение рекламы. В статье делается попытка совокупить специфические черты рекламы, творческий аспект рекламного текста, уделяется внимание языку и компонентам рекламного слогана, которые существенно влияют на выразительность и оригинальность рекламы. Кратко суммируются различные виды рекламы и их особенности. Основы разработки и создания рекламы предполагают её эффективность, и в этой статье упоминаются факторы эффективности рекламного дела.

SUMMARY. This article is devoted to the consideration of the issue of advertising, advertising slogan and highlighting their features. A broad definition of advertising is given. The article attempts to combine the specific features of advertising, the creative aspect of the advertising text, pays attention to the language and components of the advertising slogan, which significantly affect the expressiveness and originality of advertising. The various types of advertising and their features are briefly summarized. The basics of designing and creating advertising assume its effectiveness, and this article mentions the factors for the effectiveness of the advertising business. Since advertising includes not only information, but also a creative approach, it is important to consider all aspects of this issue.

PEDAGOGIK DIZAYN MODELLARI O'QITUVCHINING INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

R.K.Atamuratov – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Tayanch so'zlar: pedagogik dizayn, pedagogik dizayn modellari, ADDIE modeli, SAM modeli, ALD modeli, Backward modeli.

Ключевые слова: педагогический дизайн, модели педагогического дизайна, модель ADDIE, модель SAM, модель ALD, модель Backward.

Key words: instructional design, instructional design models, ADDIE model, SAM model, ALD model, Backward model.

Dunyoda ta'lim jarayonini takomillashtirish tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan va hayotga tadbiiq qilinayotgan g'oyalari, yangilanishlar hamda islohotlar ta'lim tizimida tub burilish jarayonini boshlab berdi. Ta'lim sifatini oshirish har bir davlat taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'li ekanini, ushbu sohada boshlangan islohotlarni davom ettirishimiz, ta'lim yoshlarning zamonaviy, raqobatdosh kasblarni egallashi uchun muvaffaqiyat kaliti ekanligi, har qanday ta'limiy yuqori natijaga yo'naltirilgan bo'lishiga erishish lozim. Bu, o'z navbatida, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ularning didaktik asoslarini o'rganib, innovatsion usullarni to'g'ri tanlash, ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatini, kreativ va kognitiv fikrlashini inobatga olgan holda pedagogik dizayn model-laridan samarali foydalanish yordamida takomillashtirish va amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli texnologiyalar kun sayin rivojlanib borayotgan raqamli transformatsiya davrida ta'lim sohasining o'quv jarayonini pedagogik loyihalashtirish, ta'limiy ko'nikmalarni shakllantirish, raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim berish tajribasini yaxshilash, innovatsion pedagogik yondashuv va gibrid ta'lim metodlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu sababdan, o'qitish jarayonini tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish zarur bo'ladi. Bunda ta'lim jarayoniga pedagogik dizayn modellarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga erishishdagi eng samarali yo'llardan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayoni kontekstida pedagogik dizayn tushunchasi so'nggi vaqtlarda ko'p tilga olinmoqda. Bu atama ingliz tilidan olingan bo'lib "Instructional design" "Pedagogik dizayn" yoki "pedagogik loyihalash" degan ma'noni bildiradi.

Pedagogik dizayn (ID – *Instructional Design*) - bu o'quv maqsadlari va ehtiyojlarini tahlil qilish, o'quv faoliyati, materiallar va baholash strategiyalarini tizimli ishlab chiqish hamda ta'lim oluvchilarning belgilangan ta'lim natijalariga erishishini ta'minlash jarayoni.

Ko'pchilik tadqiqotchilar bu tushunchani yangi muhitda ishlashni davom ettirish uchun muhim ko'nikmalar, onlayn ta'limni tashkil etish bo'yicha harakatlar to'plami deb tushinishsa [4], ba'zilar esa kasbiv vetuklikka erishish va daromadlarini oshirish imkoniyati [2], ta'lim muhitini o'rganadigan va eng ko'p uchraydigan holatlar uchun umumiy qoidalarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy soha [5], ta'lim mazmuni va strategiyalarini ishlab chiqish hamda samaradorligini oshirish vositasi [3], shuningdek, pedagogik tizimni qurish, muammolarni tahlil qilish deb bilishadi.

Ussainova va Bashkin tadqiqotlarida "Pedagogik dizayn - texnologiya va ta'limning birlashuvi bo'lib, ta'lim beruvchining eng katta vazifasi bu ikki tushuncha o'rtasida "ko'priki"ni qura olishdir" [1] deb ta'rif bergan.

Ilmiy adabiyotlar tahlil qilish orqali pedagogik dizaynga o'z mualliflik ta'rifimizni beradigan bo'lsak "Pedagogik dizayn bu samarali o'rganishga yordam beradigan o'quv materiallari va tajribalarini loyihalashning tizimli va ijodiy jarayonidir".

Pedagogik dizaynni loyihalashtirishda ta'lim beruvchi biror-bir grafik muharrirlarda ishlay olish ko'nikmasiga (chizish, bo'yash yoki tahrirlash) ega bo'lishlari shart emas. O'z faoliyati bilan ta'lim oluvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qilish, o'quv materialni aniq va malakali taqdim etishi, shuningdek, ularning faoliyati samaradorligini baholash kerak bo'ladi. Buning uchun pedagog-dizayner, odatda, quyidagi muammolarni hal qiladi:

1. Maqsadli auditoriya ehtiyojlarini aniqlashtiradi. Bunda axborotga bo'lgan ehtiyoj va idrok eta olish

xususiyatlarini inobatga olgan holda materiallarni tahlil qiladi va tizimlashtiradi hamda kutilayotgan natijalar bilan bog'liq bo'lishini nazorat qiladi.

2. Ta'lim (yoki kurs) maqsadlarini belgilaydi va ularni aniq maqsadlar orqali rivojlantiradi.

3. Tomoshabinlar va maqsadlarga mos keladigan o'quv materiallarini tanlaydi / tuzadi va ularni eng samarali taqdimot uchun loyihalashtiradi.


4. Natijalarni baholash tizimini ishlab chiqadi.

Pedagogik dizayn ilmiy yo'nalish va amaliy intizom sifatida doimiy ravishda yangi ishlanmalar bilan yangilanadi. Ular tahlil qilinadi, tizimlashtiriladi va tayyor modellarga jamlanadi. Pedagogik dizayn modellari, ayniqsa raqamli ta'lim muhiti kontekstida samarali ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda nazorat qiluvchi muhim asoslardir. Ushbu modellar samarali, ta'sirchan o'quv kontent tuzishga yordam berish bilan birga, talabalarning motivlarini oshiradi, ta'lim tajribasining mazmunli va individual ehtiyojlarga mos kelishini ta'minlaydi.

Keling, ulardan eng mashhurlarini ko'rib chiqaylik.

ADDIE modeli. ADDIE besh bosqichli jarayon bo'lib, samarali o'quv materialini yaratish bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Bu Analysis (tahlil qilish), Design (loyihalash), Development (ishlab chiqish), Implementation (amalga oshirish) va Evaluation (baholash) degan ma'noni anglatadi. Bu model ko'proq mehnat talab qiladigan jarayon bo'lishiga qaramay, natijasi birinchi marotaba bajarishda ko'rinadigan to'g'ri ketma-ket bosqichli sikllari jarayondir. ADDIE modeli ta'lim va o'quv dasturlarini yaratish jarayonini boshqarish uchun foydalaniladigan tizimli pedagogik dizayn asosidir. Bu takrorlanuvchi jarayon o'quvchilar ehtiyojlarini tahlil qilishdan boshlanadi, so'ngra o'quv yondashuvini loyihalash, mazmunni ishlab chiqish, yechimni amalga oshirish va uning samaradorligini baholashdan iborat bo'ladi. ADDIE modeli o'quv tajribalarini yaratishni shu tarzda tuzib, o'quv dasturlari samarali, haqiqiy hamda ta'lim muassasi va ta'lim oluvchilar maqsadlariga mos kelishini ta'minlaydi.


Bu model bo'yicha sodda misol keltiradigan bo'lsak, tasavvur qiling, siz bino qurmoqchisiz. **Tahlil** bosqichida siz qanday bino qurish kerakligini va uni barpo etishda qanday materiallar kerakligini aniqlaysiz. **Loyihalash** bosqichida siz chizmalar yaratasiz va xonalar soni hamda joylashuvining tartibini rejalashtirasiz. **Ishlab chiqish** qurilish jarayoni boshlanganida, **amalga oshirish** esa yangi uyingizga birinchi marta eshikni ochganingiz, va nihoyat, **baholash** bosqichida siz uyda yashayotganingizda va biror narsani sozlash yoki qo'shish vaqti kelganiga qaror qilganingizga o'xshatish mumkin (1-rasm).



1-rasm. ADDIE pedagogik dizayn modelining tarkibiy tuzilmasi

SAM modeli. SAM (Successive Approximation Model) - ketma-ket yaqinlashish modeli foydalanuvchilarni bitta mukammal yechimga bog'lanib qolmasdan ko'proq fikr-mulohaza yuritish va tezkor tuzatishlar kiritishga undaydi. Bu model murakkab obyektlarni oddiyroq, ammo o'xshash narsalar bilan almashtirish orqali miqdoriy va sifat xususiyatlarini o'rganish usuli hamdir. Yaqinlashish deganda, murakkab nazariy materialni maqsadli auditoriyaning amaliy ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos keladigan qilib soddalashtirish tushuniladi. ADDIE modeli ketma-ket bosqichli jarayonlar orqali tashkil etilsa, SAM modeli esa buning aksi, ya'ni rivojlanish davriy bo'ladi. SAM modeli uch bosqichdan iborat iterative (takrorlanuvchi) sikllarni o'z ichiga oladi: *tahlil, dizayn va rivojlanish*.

Pedagog zaruriy bilimlar to'plami asosida o'quv kurs prototipini yaratadi va uni darhol sinovdan o'tkazadi. Har bir yangi o'quv guruhi (sinf yoki kurs) o'quv kursni tugatgandan so'ng aniqlangan kamchiliklarga tuzatishlar kiritadi. Natijada maqsadli auditoriya ehtiyojlariga eng mos keladigan kontentga tez muddatda erishish imkonini beradi. Iterativ rivojlanish uch bosqichli takroriy tsikllar orqali amalga oshiriladi. Bular: *rivojlanish; bajarish va baholash*. Iterativ rivojlanishning ushbu kichik bosqichida aqliy hujum va qo'shimcha dizayn uchun boshlang'ich bosqichga qaytish mumkin. Kurs maqbul darajaga yetganda, alfa va beta versiyalari ishga tushiriladi. Barcha versiyalar yuqori darajada baholansa, jarayon to'liq yakunlanadi (2-rasm).



2-rasm. SAM pedagogik dizayn modelining tarkibiy tuzilmasi

Bu model bo'yicha sodda misol keltiradigan bo'lsak, bu model yangi taom tayyorlash jarayoniga o'xshaydi. **Tayyorgarlik** bosqichida kerakli mahsulotlar tanlanadi. **Loyihalash** bosqichida bu turli xil ta'm kombinatsiyalari bilan tajriba o'tkazish tushuniladi. **Iterativ rivojlanish** bosqichida taomni qayta tayyorlash, taom retseptni yaxshilash uchun bir qator sinovlar o'tkazish va oldingi xatolar yo'l qo'ymaslik. So'nggi bosqich **harakat xaritasida** boshqalar mustaqil taom tayyorlashda foydalana olishi uchun mukammal retsept yoziladi.

ALD modeli. ALD modeli (Agile Learning Design) moslashuvchan ta'lim dizayni hisoblanib, raqamli ta'lim uchun samarali natijani kafolatlaydigan har bir dars rejasi uchun moslashuvchan bo'ladi. Bu modelning maqsadi moslashuvchan tamoyillarni joriy etish natijasi sifatida ta'lim oluvchilarni o'quv jarayonida samarali faolligini tashkil etish orqali va yanada jozibali, natijaviy ta'lim modelini qurishdir.

Agile so'zi inglizcha so'zlar lug'atida (epchil, moslashuvchan) bo'lishiga qaramay qisqartma so'z hisoblanadi. To'liq holatda esa:

Align – maqsadni aniqlash va unga kirishish;

Get set – jarayon uchun kerakli rejani tuzish;

Iterate – rejaga muvofiq maqsadga erishish uchun takroriy amalga oshirish;


Leverage – takror amalga oshirishlardan kerakli ma'lumotlarni olish;

Evaluate – har bir takroni yaxshilash uchun oldingi ma'lumotlarni tahlil qilish va loyihaga singdirish.

Backward modeli. Backward modeli ta'lim dasturini oxiridan ortga qarab loyihalashni o'z ichiga oladi. Yuqorida keltirilgan pedagogik dizayn modellarida dastlab tahlil boshqichidan boshlab to natijalarni baholash boshqichida yakun topar edi. Bu safar teskari harakat ya'ni, ta'lim oluvchi kursni yakunlagandan so'ng erishishi kerak bo'lgan asosiy natijalarni birinchi shakllantiriladi. Bu natijalarga erishish uchun mezonlar (baholash vositalari ishlab chiqiladi) aniqlanadi. Faraz qilaylik, darsning mazmuni bilamiz. Biz kutilayotgan natijalarni va ularni qanday baholashdan kelib chiqib ularga erishish uchun kerakli materialni tanlashimizni osonlashtiradi. Ushbu model amaliyotga yo'naltirilgan va juda uzoq bo'lmagan kurslar uchun maqbul hisoblanadi. Bu ta'lim beruvchiga nazariy materialni ortiqcha yuklamaslikka va ta'lim oluvchilarning faqat aniq natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan bilimlarni berishiga ko'maklashadi.

Dik va Keri modeli. Dik va Keri modeli (tizimli yondashuv modeli sifatida ham tanilgan) reduksionistik (tushuntirishga urinishda duch keladigan qiyinchilik) yondashuvdan foydalanadi. Bu turdagi yondashuvlar butun tizimni batafsil tushunish uchun katta g'oyalar yoki jarayonlarni kichik qismlarga ajratib o'rganish tushuniladi. Sodda qilib aytganda, tizimli yondashuv tarkibidagi har bir muhim komponentning yakuniy natijaga qanday hissa qo'shishini aniqlashga uriniladi.

Ushbu falsafa natijasida tizimli yondashuv modeli samarali ta'lim tashabbuslarini rejalashtirish va rivojlantirish uchun to'qqiz bosqichli jarayonlarni taklif etadi. Ba'zi olimlar ADDIE tizimli yondashuv modelini kengaytirilgan nusxasi sifatida ko'rishadi. Shuningdek, bu pedagogik dizayn modeli ADDIE modelidan ko'ra ko'proq ko'rsatmalarni doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish orqali iterativ rivojlanishga asoslanadi (3-rasm).



3-rasm. Dik va Kerin pedagogik dizayn modeli

Bundan tashqari, Robert Gagne modeli, Merrill modeli, Blum taksonomiyasi, Minimalizm, Kemp, SMART, Morrison va Ross modeli, Tezkor prototiplash va epatik pedagogik dizayn modellari mavjud bo'lib, raqamli o'quv jarayonini loyihalash uchun foydalanib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik dizayn modellari elektron ta'limning yuragi va miyasidir. Bu muvaffaqiyatli, qiziqarli va elektron ta'lim tajribasining tashabbuskor harakatlantiruvchi kuchidir. Pedagog dizaynerlar nafaqat bilimlarni yetkazib beradigan, balki, metodik dizayn (loyihalash) jarayoniga rioya qilish orqali ta'lim oluvchilarni ilhomlantiradigan va qiziqishini kuchaytiradigan muvaffaqiyatli elektron ta'lim resurslarini yaratishi mumkin. Texnologiya taraqqiyoti sari Ta'lim dizayni raqamli asrda ta'lim va ta'lim kelajagini shakllantirishda birinchi o'rinda turadi. Elektron ta'lim kompaniyalarini ko'rib chiqayotganda, Ta'lim dizaynining rolini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Bu elektron ta'lim bo'yicha bo'lib, uni har qanday eLearninging muhim tarkibiy qismiga aylantiradi.

Adabiyotlar

1. Ussainova G. & Kazarenkov V. (2023). Pedagogical Design: Concept, Principles, Models. *Математиканы физиканы және информатиканы оқытудың өзекті мәселелері*, 2(2), 9–15. <https://doi.org/10.52081/mpimet.2023.v02.i2.012>
2. Khaldi M. (2024). Choosing Pedagogical Models for a Learning Activity. In *Advances in educational technologies and instructional design book series* (pp. 99–140). <https://doi.org/10.4018/979-8-3693-1206-3.ch004>
3. Shkil O. (2023). Pedagogical Design In Professional Training Of Designers. *Научное Мнение*, 1–2, 123–127. https://doi.org/10.25807/22224378_2023_1-2_123
4. Erradi O., Barhone, J. E., & Khaldi, M. (2024). Main Models of Design and Pedagogical Scenarisation for Online Adult Training Courses. In *Advances in educational technologies and instructional design book series* (pp. 228–244). <https://doi.org/10.4018/979-8-3693-1206-3.ch010>
5. Гришаева А.В. (2024). PEDAGOGICAL DESIGN AS A WAY TO ENHANCE THE LEARNING PROCESS. *Pedagogical Review*, 2(54), 113–121. <https://doi.org/10.23951/2307-6127-2024-2-113-121>
6. Çalışkan İ. (2014). A Case Study about Using Instructional Design Models in Science Education. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 116, 394–396. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.01.228>
7. Khodabandelou R. & Samah S. a. A. (2012). Instructional Design Models for Online Instruction: From the Perspective of Iranian Higher Education. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 67, 545–552. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2012.11.359>
8. Dick W., Carey L. & Carey J.O. (2015). *The Systematic Design of Instruction* (8th ed.). Upper Saddle River, NJ: Pearson.

РЕЗЮМЕ. Maqolada raqamli ta'limni tashkil etishda foydalaniladigan "Pedagogik dizayn" tushunchasi tahlil qilinadi. Shuningdek, bu atamaga berilgan ta'riflar farqlanadi va uning modellari haqida so'z yuritiladi. O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatida qo'llash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

РЕЗЮМЕ. Статья анализирует концепцию "Педагогического дизайна", используемую в организации цифрового образования. Также даны различные определения этого термина, и его модели объясняются. Предоставлены рекомендации по проектированию образовательного процесса в инновационной педагогической деятельности учителя.

SUMMARY. The article analyzes the concept of "Instructional design" used in the organization of digital education. Also, the definitions given to this term are differentiated and its models are explained. Recommendations are provided on the design of the educational process in innovative pedagogical activity of the teacher.